

Frazeologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o‘rni va ahamiyati

*Sobitov A‘zamxon Tursunpo‘lot o‘g‘li,
Fakultetlararo chet tillar kafedrası o‘qituvchisi
Namangan davlat universiteti
Jahon tillari fakulteti
tursunpulotovich21@gmail.com*

Annotatsiya. mazkur maqolada bugungi kundagi zamonaviy ingliz tilshunosligida tilidagi frazeologik birliklarning tilshunoslikning ajralmas bir qismi sifatida tutgan o‘rni va ahamiyati, shuningdek bugungi kungacha frazeologiya tadqiqi yuzasidan qilingan tadqiqotlar va hozirgi kunda ham amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar haqida so‘z yuritiladi. Ayrim frazeologik birliklar gramatik va semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilingan. Frazeologik birliklarning muayyan turlari haqida batafsil to‘xtalibgina qolmay, mazkur turlar bo‘yicha misollar va ularning tarjimalarini atroflicha muhokama qilingan. Ayniqsa, frazeologik birliklar hosil bo‘lishida ko‘chma ma‘nolar, xususan, metafora, metonimiya, vazifadoshlik kabilarning o‘rni beqiyosligi ta‘kidlab o‘tilgan. Frazeologiya va frazeologik birliklarni o‘rganish masalasida tarixga nazar tashlanar ekan, bu sohaning dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Ma‘lum bir badiiy asar yoki adabiy janr ishtirokidagi she‘riy parchani bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda, barqaror so‘zlar ya‘ni turg‘un holatda kelgan birliklar bog‘lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo‘lmay qolgan. Bunda o‘sha tillarda mavjud bo‘lgan frazeologik ibora va birikmalar o‘rganila boshlangan. Natijada, frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik predmeti sifatida o‘rganilgan. Keyinchalik, lug‘atlarda frazeologik iboralar to‘planib, ma‘nolari izohlangan; frazeologik birliklar ma‘nosi, grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham tekshirila boshlangani haqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik birliklar, frazeologiya, frazeologik birliklar, semantic tahlil, barqaror jumlarlar, frazeologik tadqiqot, leksik qatlam, barqaror jumlarlar, frazeologik chatishma, komponentlar, erkin bog‘lanma, ko‘chma ma‘no.

Место и значение фразеологических единиц в лингвистике

*Собитов Аъзамхон Турсунпулотович
Преподаватель межфакультетской кафедры иностранных языков
Наманганский государственный университет,
факультет Мировых языков,
tursunpulotovich21@gmail.com*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение фразеологических единиц в современной английской лингвистике как неотъемлемой части языкознания, а также исследования, проведенные к настоящему времени, и научные исследования, проводимые в настоящее время. Некоторые фразеологические единицы анализируются в грамматическом и семантическом плане. Подробно рассматриваются не только конкретные типы фразеологических единиц, но и примеры этих типов и их переводы. В частности, подчеркивается несравненная роль переносных значений, в частности метафоры, метонимии и функционального сходства, в образовании фразеологических единиц. Оглядываясь на историю изучения фразеологии и фразеологических единиц, мы видим, что изначально это направление возникло в литературоведении. При переводе поэтического фрагмента, относящегося к определенному литературному произведению или жанру, с

одного языка на другой стало невозможным переводить устойчивые слова, то есть связь единиц, пришедших в устойчивое состояние. В этом случае стали изучать фразеологические выражения и сочетания, существующие в этих языках. В результате фразеология изначально изучалась как предмет литературоведения. Позднее фразеологические выражения собирались в словарях и объяснялись их значения; также упоминалось, что значение и грамматическая структура фразеологических единиц стали изучаться в науке языкознания.

Ключевые слова: языковые единицы, фразеология, фразеологические единицы, семантический анализ, устойчивые предложения, фразеологическое исследование, лексический пласт, устойчивые предложения, фразеологическое сочетание, компоненты, свободная связь, подвижное значение.

The place and significance of phraseological units in linguistics

Sobitov A'zamkhon Tursunpo'lot ugli,
Teacher of Interfaculty foreign languages department
Namangan State University
World languages faculty
tursunpulotovich21@gmail.com

Annotation. This article discusses the role and importance of phraseological units in modern English linguistics as an integral part of linguistics, as well as the research conducted to date and the scientific research being carried out at present. Some phraseological units are analyzed in grammatical and semantic terms. Not only are specific types of phraseological units discussed in detail, but examples of these types and their translations are discussed in detail. In particular, the incomparable role of figurative meanings, in particular metaphor, metonymy, and functional similarity, in the formation of phraseological units is emphasized. Looking back at the history of the study of phraseology and phraseological units, we can see that this field initially appeared in literary studies. When translating a poetic fragment involving a certain literary work or genre from one language to another, it became impossible to translate the stable words, that is, the connection of units that came in a stable state. In this case, phraseological expressions and combinations existing in those languages began to be studied. As a result, phraseology was initially studied as a subject of literary studies. Later, phraseological expressions were collected in dictionaries and their meanings were explained; it was also mentioned that the meaning and grammatical structure of phraseological units began to be examined in the science of linguistics.

Keywords: linguistic units, phraseology, phraseological units, semantic analysis, soft sentences, phraseological research, lexical layer, soft sentences, phraseological combination, components, free connection, portable meaning.

KIRISH

Frazeologiya va frazeologik terminlar haqida gap ketar ekan, avvalo mazkur termin, tabiiyki, izoh talab etadi. Frazeologiya yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini, uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limini tadqiq etuvchi bo'limi hisoblanadi. According to Longman phraseology – the way that words and phrases are chosen and used in a particular language or subject (LDOCE, 2009). Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini, xususiyatlari va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning og'azaki va yozma nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgi-xususiyatlarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng

boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar mazkur birliklarni 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Frazeologiyani o'rganish tarixini o'rganar ekanmiz, bu sohaning dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lganligini ko'ramiz. Ma'lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda, barqaror so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologik iboralar o'rganila boshlangan. Natijada, frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik predmeti sifatida o'rganilgan. Keyinchalik, lug'atlarda frazeologik iboralar to'planib, ma'nolari izohlangan; frazeologik birliklar ma'nosi, grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham tekshirila boshlangan.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlay bilish; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik jihatdan rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida kelgan so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqa frazeologik birliklarni ajrata olish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini va yana bir qancha vazifalarni ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur-semantik, grammatik vazifaviy-uslubiy asoslarga ko'ra tasnif etiladi. Struktur-semantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan bo'lib, shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlaridan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan. Ushbu soha tadqiqi bo'yicha hozir ham atroflicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Frazeologik birliklarni boshqa bir leksik birliklar yoki yaxlit leksemalar bilan almashitirish mumkin emas, chunki mazkur jarayonda birlik ma'nosi tubdan o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi. Misol tariqasida, **kick the bucket** frazeologik birligini oladigan bo'lsak, mazkur birikma “vafot etmoq”, “hayotdan ko'z yummoq” degan ma'nolarni beradi. Kick fe'li tepmoq, bucket fe'li savat ma'nosini beruvchi ikki xil so'z turkumidan yasalgan bo'lib, mazkur birlikdagi ushbu fe'l yoki otni almashtirish mazkur birikma asl ma'nosini tubdan o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi. Mazkur birliklarga aksariyat manbalarda tilning boyish manbayidir deya ta'rif beriladi. Mashhur lingvist, frazeologiya sohasining bilimdoni professor A. V. Kunin frazeologiya leksikologiyaning bir qismi emas, balki mustaqil lingvistik fan bo'lishi kerak deb hisoblaydi (Kunin, 1986). Yana bir muhim iqtibos sifatida keltishimiz mumkinki, “Books of English idioms” kitobining muallifi Collinsning qarashlariga ko'ra bugungi kunda yozma va og'zaki nutqda qo'llanilayotgan standart ingliz tilidagi frazeologik birliklar bu tilni boyitadigan, bezaydigan va albatta ehtiyotkorlik bilan foydalaniladigan muhim va asoslangan element hisoblanadi.

Frazeologik birikmalar asosan so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, boshqacha qilib aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg'un so'z birikmlarini o'z ichiga oladi. Frazeologizmlarning tarkibida necha so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional – ekspressiv ma'noni ifodalaydi (Bektashev & Mamurova, 2023). Misol sifatida “a dark horse” birligini olaylik. Mazkur birikma dark (sifat) hamda horse (noun) leksemalaridan tashkil topgan. Lug'aviy jihatdan esa “kutilmagan g'olib” deya tarjima qilinadi. Ushbu holatda agar so'zlar o'zni almashitirilsa yoki asl ma'nosida tarjima qilinsa frazeologik birlik

ma'nosidan chiqib ketadi. Shuning uchun ham mazkur birlik turg'un birikma hisoblanadi. Ushbu birliklar nomidan ham ma'lumki, bir qancha so'z turkumlaridan tashkil topadi, tarkibdagi so'zlar odatdagi lug'aviy a'nosidan chetga chiqib, butunlay yangi ma'no hosil qiladi. Grammatik jihatdan tahlil qilish qaysidir ma'noda mantiqsiz bo'ladi, chunki yasalgan ushbu birlik metafora, metonimiya, vazifadoshlik kabi ko'chma ma'nolarga yuzlangan bo'ladi. Frazeologik birliklarda eng ko'p ko'cha ma'no aralashuvi bu metafora hamda metonimiya orqali sodir bo'ladi. Bu albatta, bevosita adabiy janrlar bilan bog'liq, masalan ko'proq maqollarda uchraydi. Yanada tushunarli bo'lishi uchun quyidagi maqollarni keltirishimiz mumkin:

Idleness is the root of all evil – *Bekochidan xudo bezor,*
A penny saved is a penny gained – *Oz oz bo'lib daryo bo'lur,*
The pen is mightier than the sword – *So'z qilichdan kuchli,*
Ask no questions, hear no lies – *Ko'p gap boshga balo,*
Silence is something an answer – *Jimlik alomati rizo.*

Yuqoridagi misollarga e'tibor beradigan bo'lsak, ayrimlari tarjimaga qisman aloqasi bor. barcha ko'chma ma'noda ishlatilib, nutqqa tayyor holda kirgan gap va birikmalar frazeologik birliklar hisoblanadi va barcha turg'un birliklar, maqol va hikmatli so'zlar, frazalar va idiomalar barchasini o'z ichiga oladi. Har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til millatining madaniyati, urf – odat va yashash tarzidan kelib chiqib shakllanadi va o'z tilini boyitishda muhim factor bo'lib xizmat qiladi. Frazeologik birliklarning yana bir turi frazeologik chatishma bo'lib, unda komponentlar o'zlarining dastlabki (leksik) ma'nolaridan uzoqlashib, ibora tarkibida butunligicha ko'chma ma'noni ifodalaydi (Yodgorov, 2023). Bunga minglab misollar keltirish mumkin. Masalan, "it is raining cats and dogs" frazeologik birikmasi adekvat jihatdan jala quymoqda deb tarjimalanadi. Ushbu birikma gramatik tuzilishi jihatidan butun bir gapga teng. Tarkibidagi istalgan so'zni tushib qolishi uning ma'nosi buzilishiga sabab bo'ladi ya'ni shu gapga teng holatida, butunligicha yaxlit bir ma'noni ifodalaydi. To let the cat out of the bag birikmasi esa gramatik-struktur jihatdan athlil qilinadigan bo'lsa turli elementlardan tashkil topgan bo'lib, "oshkor qilmoq", "fosh qilmoq" degan tarjimalarni beradi (Cornog, 2014). Buni aksariyat manbalarda idiomalar deb beriladi, sababi idiomalar frazeologik birliklarning eng keng tarqalgan qismi hisoblanadi. Bevosita verbal frazeologizmlar aynan gap shaklida kelgan birliklar bilan bog'liqdir. Funksional jihatdan fe'llar bilan bog'liq, ya'ni asosiy qismini fe'l komponentlari tashkil etgan frazeobirikliklar bu guruhga taaluqli bo'ladi. Verbal frazeologizmlar har xil gap bo'laklari funksiyalarini, yani kesim, ega va hol funksiyalarini bajaradi. Verbal frazeologizmlar tarkibiga idiomalar va frazeologik birliklar kiradi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlar, tahlillardan xulosa chiqargan holatda shuni aytish mumkinki, frazeologik birliklar, ularning turlari, har qaysi til tilshunosligida frazeologizmlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Mazkur soxa bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, ularni keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Frazeologiya soxasida qilinayotgan ilmish izlanishlar keyingi bosqich tilshunoslari uchun muhim manba bo'libgina qolmay, balki tilshunoslik soxasi rivojiga katta hissa qo'shadi. Struktur-gramatik jihatdan turli morfologik leksemalardan tashkil topgan, birikma, gap shaklida kelsa ham umuman boshqa ma'no mazmunni ifodalaydigan, gapga qaysidir ma'noda bezak beradigan mazkur birliklar har qanday tilde muhim ahamiyat kasb etadi.

References

1. Mayor. M, "The Longman Dictionary of Contemporary English" (LDOCE5), Pearson Education Limited, the fifth edition. England, 2009. ISBN 9781408215333
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1986.
3. Mamurova. SH, "Ibora, so'z birikmasi va frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha". Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning

muhim omili mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024. Kokand university, Kokand. P 180

4. Otabek Kodiraliyevich Bektashev, & Shakhlo Sultanovna Mamurova. (2023). Grammatical Form And Its Types In The Formation Of Word Combinations. Journal of Advanced Zoology, 44(S1), 1211–1215. <https://doi.org/10.53555/jaz.v44iS1.3250>

5. Yodgorov, U. “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLIGIZMLARNING O‘RGANILISHI, LISONIY XUSUSIYATLARI VA NUTQIY QIYMATI”, MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI. Toshkent. – 2023, 278 p. ISSN 2181-7324

6. M.W.Cornog, A.K.Harris & A.West, “Merriam Webster’s Dictionary and Thesaurus”, Massachusetts, 2014.- *Revised and updated edition* ISBN: 978-0-87779-863-7

7. G.Clauson, “An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish”, 1972. *Oxford at the Clarendon press*, Glasgow. 930, 183, 200, 776, 763, 356, 192, 238, 368 – pp. ISBN 109634812686

8. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1982.

9. Hozirgi o‘zbek tili (kirish, fonetik sath, liksik-semantik sath) / darslik. Baxtiyor Mengliyev – Toshkent: «Tafakkur bo‘stoni», 2018. – 200 b. – B. 193-194.

Internet manbalar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-o-zbek-tillarida-frazeologizmlarning-semantik-va-lingvokulturologik-tahlili>

2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologiya>

3. <https://cspu.uz/storage/app/media/uploaded-files/frazeologiya.pdf>

4. <https://cspu.uz/storage/app/media/uploaded-files/frazeologiya.pdf>

5. <https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/frazeologiya-iboralar>

6. <https://savodxon.uz/izoh?frazeologiya>